TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/2025.27.12.T.21.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI

MARDONOV IXTIYORJON BAHODIR O‘G‘LI

PAXTA TOZALAGICHLARNI TEXNOLOGIK VA KONSTRUKTIV KO‘RSATKICHLARINI TAKOMILLASHTIRISH ASOSIDA TOZALASH SAMARADORLIGINI OSHIRISH

05.06.02 – To‘qimachilik materiallari texnologiyasi va xomashyoga dastlabki ishlov berish

Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Toshkent – 2026

UO‘K: 677.021.164/.051.16

Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по техническом наукам
Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on technical sciences

Mardonov Ixtiyorjon Bahodir o‘g‘li
Paxta tozalagichlarni texnologik va konstruktiv ko‘rsatkichlarini takomillashtirish asosida tozalash samaradorligini oshirish..... 3

Мардонове Ихтиёржоне Баходир угли
Повышение эффективности очистки на основе совершенствования технологических и конструктивных параметров хлопкоочистителей…… 23

Mardonov Ixtiyorjon Bahodir o‘g‘li
Increasing the cleaning efficiency based on the improvement of technological and structural parameters of cotton cleaners.....……..... 46

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published works.…….....…… 50

TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/2025.27.12.T.21.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI

MARDONOV IXTIYORJON BAHODIR O‘G‘LI

PAXTA TOZALAGICHLARNI TEXNOLOGIK VA KONSTRUKTIV KO‘RSATKICHLARINI TAKOMILLASHTIRISH ASOSIDA TOZALASH SAMARADORLIGINI OSHIRISH

05.06.02 – To‘qimachilik materiallari texnologiyasi va xomashyoga dastlabki ishlov berish

Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Toshkent – 2026

Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiyaa komissiyasida B2026.3.PhD/T6211raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus va ingliz (resume)) Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti huzuridagi Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.ttysi.uz) va «Ziyonet» Axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Parpiyev Azimjon Parpiyevich** texnika fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**Jumaniyazov Qadam Jumaniyazovich** texnika fanlari doktori, professor
	Usmankulov Alisher Kadirkulovich texnika fanlari doktori, professor
Yetakchi tashkilot:	**Namangan davlat texnika universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti huzuridagi DSc.03/2025.27.12.T.21.01 raqamli Ilmiy kengashning 2026 yil « 10 » noyabr soat « 11^{00} » dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100100, Toshkent sh., Shohjahon-5, tel.: (+99871) 253-06-06, faks: 71-253-36-17; e-mail: titlp_info@edu.uz, Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti ma’muriy binosi, 2-qavat, 222-xona).

Dissertatsiyasi ishi bilan Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (322-raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100100, Toshkent sh., Shohjahon-5, tel.: (+99871) 253-06-06, 253-08-08.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil « 23 » oktabr kuni tarqatildi.
(2026 yil « 23 » oktabrdagi 316 raqamli reyestr bayonnomasi).

X.H.Kamilova
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi, t.f.d., professor

A.Z.Mamatov
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash ilmiy kotibi, t.f.d., professor

Sh.Sh.Xakimov
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash qoshidagi
ilmiy seminar raisi, t.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi annotatsiyasi)

Dissertasiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon iqtisodiyotining muhim bo‘g‘inlaridan biri - to‘qimachilik sanoatini yanada rivojlantirish katta ahamiyat kasb etadi. Bu borada paxta tolasi yetishtirish va uni qayta ishlash bo‘yicha yetakchi Xitoy, AQSH, Hindiston, Turkiya kabi qator mamlakatlarda paxtani birlamchi qayta ishlash texnologik jarayoni uchun yangi ishchi qismlar ishlab chiqish va takomillashtirish bo‘yicha keng qamrovli ishlar olib borilmoqda. Ushbu yo‘nalishda paxta tolasi sifatini yaxshilash va tannarxini kamaytirish imkonini beruvchi yangi energiya-resurstejamkor texnologik mashinalar va jihozlardan foydalanishga hamda qo‘llanilayotganlarini chuqur takomillashtirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Jahonda paxta xomashyosini iflosliklardan tozalash texnologiyalarini takomillashtirish va ularni amalga oshiruvchi energiya-resurstejamkor uskunalarni ishlab chiqish, ularning ilmiy asoslarini rivojlantirish, paxta tozalash texnologik mashinalarining ishlash rejimlari va mahsulot sifati nazorati bo‘yicha avtomatik boshqaruv tizimlarini ishlab chiqish, texnologik jarayonga ta’sir etuvchi omillarni maqbul qiymatlarini aniqlashga yo‘naltirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Ushbu yo‘nalishda jahon paxta tozalash sanoatida yuqori samaradorlikka ega bo‘lgan paxta tozalash uskunalarini takomillashtirish va resurstejamkor texnologiyalardan foydalanish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Bu borada, paxtani iflos aralashmalardan tozalashning samarali texnologiyasi va ishchi qismlarning resurstejamkor konstruksiyalarini yaratish va paxta tozalash jarayoni ishlash rejimlarini maqbullashtirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Respublikada keng turdagi sifatli paxta mahsulotlari ishlab chiqarishni tashkil etish, uning ishlab chiqarilishini mahalliylashtirishni chuqurlashtirish, shuningdek, mahalliy ishlab chiqaruvchilarning eksport salohiyatini oshirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida Milliy iqtisodiyot barqarorligini ta’minlash va yalpi ichki mahsulotda sanoat ulushini oshirishga qaratilgan sanoat siyosatini davom ettirib, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 1,4 baravarga oshirish maqsad qilinib, bunda to‘qimachilik sanoati mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 2 baravarga ko‘paytirish vazifasi belgilab berilgan. Ushbu vazifani amalga oshirish, jumladan, paxta sanoatining texnologik mashinalarini zamon talablari darajasida takomillashtirish, texnologik mashinalardagi ishchi organlar va uzatmalarni yangi turlarini ishlab chiqish, paxta xomashyosini mayda va yirik iflosliklardan tozalash uskunalarining samaradorliklari yuqori bo‘lgan resurstejamkor texnologiyalarini yaratish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi, 2021-yil 16-noyabrdagi PF-14-son “Paxta-to‘qimachilik klasterlari faoliyatini tartibga solish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2023-yil 10-yanvardagi PF-2-son “Paxta-to‘qimachilik klasterlari faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, to‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini tubdan isloh qilish hamda sohaning eksport

salohiyatini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-iyundagi 397-son “Paxta-to‘qimachilik ishlab chiqarishini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Paxta tozalash texnologiyasi va uskunalarini takomillashtirish bo‘yicha bir qator xorijiy tadqiqotchilar, jumladan, W.S.Antoni, R.M.Sutton, R.V.Baker, P.A.Boving, J.W.Laird, V.G.Arude, S.K.Shukla, T.S.Manojkumar, D.W.Van Doorn, B.M.Norman va boshqalar shug‘ullanishgan.

Paxtani iflos aralashmalardan tozalash texnika va texnologiyasi, asosiy ishchi qismlarining ko‘rsatkichlari va ishlash rejimlari hamda paxta bilan ta’minlash jarayonlarini takomillashtirish bo‘yicha tadqiqotlar G.I.Miroshnichenko, S.D.Boltabayev, G.D.Djabbarov, R.Z.Burnashev, G.I.Boldinskiy, R.V.Korabelnikov, A.P.Parpiyev, B.I.Roganov, I.K.Xafizov, A.Rasulov, A.Y.Lugachev, A.Djurayev, Y.S.Sosnovskiy, G.A.Kurbanova, A.A.Safayev, F.M.Baxtiyarova, P.N.Borodin, D.Y.Miraxmedov, SH.SH.Xakimov va boshqalar tomonidan amalga oshirilgan. Ular tomonidan ishlab chiqilgan ilmiy ishlanmalar va amaliy tavsiyalar asosida mavjud paxta tozalash texnologiyasi va uskunalari yaratilgan va amaliyotga tatbiq etilgan.

Respublikamizni paxta tozalash korxonalarida qo‘llanilayotgan UXK nufuzli paxta tozalash oqimi ishlash natijalari tahlili, ularning asosiy ishchi organlarining paxta bilan o‘zaro ta’sirlashuv jarayonlari va paxtani barqaror harakatlari yetarli o‘rganilmaganligi va bu yerda bir qator kamchiliklar mavjudligini ko‘rsatdi.

Shu bilan bir qatorda tozalash uskunalari konstruksiyasi va texnologik rejimlarida tozalash samaradorligi va qayta ishlanayotgan paxta sifat ko‘rsatkichlariga salbiy ta’sir etuvchi bir qator kamchiliklar saqlanib qolgan.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining II. “Energetika, energiya va resurstejamkorlik” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining ITD-3-136 “Resurstejamkor boshqariladigan tolali materiallarni tozalash texnologiyasi va qurilmasini yaratish” mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi paxta tozalash uskunalarini asosiy ishchi qismlarini takomillashtirish asosida tozalash samaradorligini va tola sifatini oshirish.

Tadqiqotning vazifalari:

paxta tozalash korxonalarida ishlab chiqarilayotgan tola sifati tahlili;

paxtani UXK tozalash oqimidagi harakatining mavjud holati tahlili;

paxta yo‘naltirgichi kordinatalarini aniqlash;

qoziqcha, paxta va to‘rli yuzalarning o‘zaro ta’sirlashuvi tadqiqoti;

qoziqchali-parrakli baraban qoziqchalarini paxta chigiti va tola qatlamiga zarbasi tahlili;

paxta tuzilmaviy tarkibining tozalash ko‘rsatkichlariga ta’sirini o‘rganish;

qoziqchali-parrakli va arrachali barabanlar bilan to‘rli yuza va kolosnik panjara oralig‘i masofasining ratsional qiymatlarini aniqlash;

tavsiya etilgan takomillashtirilgan paxta tozalash oqimining ishlab chiqarishdagi tajriba sinovini o‘tkazish va iqtisodiy samaradorligini hisoblash;

Tadqiqotning obyekti paxta tozalash uskunalari.

Tadqiqotning predmeti sifatida paxta tozalagichlarda ishchi qismlar bilan paxtani o‘zaro ta’sirlashuv jarayonlari olingan.

Tadqiqot usullari. Tadqiqot jarayonida nazariy va amaliy mexanika nazariyalari, matematik statistika usullaridan, solishtirish, baholash va maqsadli dasturlar yordamida optimallashtirish usullaridan foydalanilgan. Paxta va uning komponentlari texnologik ko‘rsatkichlari mavjud davlat standartlarida belgilangan metodikalar yordamida aniqlangan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

paxta tozalash uskunalarida paxtani arrachali va qoziqchali-parrakli barbanlarga uzatish zonalarida uzluksiz harakat buzilib, orqaga qaytish holatlari mavjudligi hamda tola va chigit shikastlanishing oshishiga sabab bo‘layotganligi aniqlangan;

paxtani orqaga qaytish holatiga barham berish maqsadida paxta tozalash uskunalarida cho‘tkali barabanlar o‘rniga sferik yo‘naltirgichlar ishlab chiqilib, ularning joylashuv kordinatalari aniqlangan va paxtani orqaga qaytish holatiga barham berilgan;

paxtaning tuzulmaviy tarkibi ko‘rsatkichi bilan arrachali va qoziqchali-parrakli barabanlarni tozalash samaradorligi o‘rtasidagi bog‘lanishlar asosida tozalashda paxta tuzilma tarkibini ratsional qiymati aniqlangan;

paxta tozalash uskunalarining tozalash samaradorligini oshirish maqsadida uskunalarning texnologik oraliqlarini paxta tuzilmaviy tarkibi va geometrik o‘lchamlarini o‘zgarishiga mos holda differensial shaklda tanlash usuli ishlab chiqilgan;

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

UXK tozalash oqimida paxta xarakatini barqaror orqaga qaytmasdan harakatlanishini ta’minlovchi kostruktiv o‘zgartirishlar kiritilgan.

Paxtaning tuzilmaviy tarkibiga qarab qoziqchali-parrakli va arrachali barabanlarda texnologik tirqishlar differensial shaklda tanlab olinishi hisobiga tozalash samaradorligining oshishi asoslandi.

Paxta zichligi, tuzilma tarkibi bilan ta’minlovchi valiklar tezligi va tozalagich ish unumdorligi o‘rtasidagi bog‘lanishni olinishi tozalagichlarni aniq belgilangan ish unumdorligida ishlashini ta’minlaydi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi paxtani iflosliklardan tozalash uskunalarida paxta harakatini nazariy tadqiqotlari natijasining amaliy sinovi, ularning mavjud va amal qilayotgan fundamental nazariyaga mantiqan muvofiq kelishi, hisobiy ishlarda standartlashtirilgan usul va

vositalardan foydalanilganligi, olingan natijalarni real iqtisodiy samara bilan ishlab chiqarishga joriy qilinishi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarini ilmiy ahamiyati paxta tozalash oqimida harakat qonuniyatlari aniqlanishi, qoziqchali baraban bilan o‘zaro ta’sirlashuvida paxta bo‘lagi geometrik o‘lchamlari bilan uning harakat trayektoriyasi o‘rtasidagi bog‘lanish olinishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati inventor ko‘rsatkichi, ta’minlovchi valiklar aylanish soni va UXK tozalagichning ish unumdorligi o‘rtasidagi bog‘lanishni xarakterlovchi regressiya tenglamalari olinishi va ularning tatbig‘i tozalagichlar oqimiga paxtani bir tekis taqsimlash imkonini berganligi, tozalagichlarga cho‘tkali barabanlar o‘rniga sferik yo‘naltirgichlar o‘rnatilishi natijasida paxtani orqaga qaytishi bartaraf etilishi, uning uzluksiz barqaror harakatini ta’minlashi hamda tozalash oqimi seksiyalarida paxta bo‘lagi o‘lchamlarini o‘zgarishiga monand texnologik oraliqlarni differensial o‘lchamlarda belgilanishi tozalash samaradorligini oshirish imkonini berishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Paxta tozalagichlarni takomillashtirish asosida tozalash samaradorligini oshirish bo‘yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijalari asosida:

takomillashtirilgan UXK uskunasi “O‘zto‘qimachiliksanoat” uyushmasi tizimidagi “TTC Agro klaster” paxta tozalash korxonasida joriy qilingan (“O‘zto‘qimachiliksanoat” uyushmasining 2025 yil 4 martdagi 03/25-427-sonli ma’lumotnomasi). Natijada mavjud variantda ishlab chiqarilgan toladagi nuqson va iflosliklar 5,75 % ni tashkil etib II nav tola “iflos” sinfiga to‘g‘ri kelsa, tavsiya variantida esa toladagi nuqson va iflosliklar miqdori 4,4 % bo‘lib, II nav “o‘rta” sinfli tola olingan, tozalash samaradorligining oshishiga va tola sinfi yaxshilanishiga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari jami 13 ta ilmiy-texnik konferensiyalarda jumladan 5 ta xalqaro va 8 ta Respublika ilmiy amaliy anjumanlarda muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 26 ta ilmiy ish chop etilgan, bulardan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, shu jumladan xorijiy jurnallarda 7 ta maqola chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, 4 ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiya ishi 120 betni tashkil etadi.

DISSERTASIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi asoslangan, muammoning o‘rganilganligi tavsiflangan, tadqiqot maqsadi va vazifalari shakillantirilgan, ilmiy yangiligi, ilmiy va amaliy ahamiyati keltirilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga

joriy qilish, nashr etilgan ilmiy ishlar va dissertasiya tuzilmasi bo‘yicha ma’lumotlar berilgan.

Dissertasiyaning **“Adabiyotlar tahlili va muammoning holati”** deb nomlangan birinchi bobida paxtaning tozalash obyekti sifatida xususiyatlari paxta tozalashning mahalliy va xorijiy texnologiyalari va uskunalari hamda ularni takomillashtirish bo‘yicha olimlar tomonidan o‘tkazilgan tadqiqot natijalari tahlili berilgan. Natijada paxtaning tuzilmaviy tarkibini tozalash samaradorligiga ta’siri hamda paxta o‘lchamlari bilan texnologik oraliqlar moslashtirilmaganligi to‘g‘risida xulosa qilingan.

Dissertasiyaning “**Paxta tozalashni nazariy va amaliy tadqiqoti”** deb nomlangan ikkinchi bobida paxta tozalash korxonalarida ishlab chiqarilayotgan tola sifati tahlili, UXK tozalash oqimida paxta xarakatini o‘rganish, tozalagichlarga yo‘naltirgich o‘rnatish hamda qoziqchali-parrakli baraban qoziqchalarini paxta chigiti va tola qatlamiga zarbasi tahlili natijalari keltirilgan.

1-jadvalda “TCT Agro klaster” tarkibidagi Mustaqillik va “GTG Agro klaster” tarkibidagi Bo‘ka paxta tozalash korxonalarida ishlatilgan C-6524 I/3 va C-6524 II/3 nav paxtani tozalanish ko‘rsatkichlari keltirilgan.

1-jadval


Texnologik jarayonlarda paxta tozalash natijalari

t/r	Texnologik jarayonlar	Bo‘ka paxta tozalash korxonasi						Mustaqillik paxta tozalash korxonasi					
		Paxta iflosligi, %			Tozalash samaradorligi, %			Paxta iflosligi, %			Tozalash samaradorligi, %		
		mayda	yirik	umumiy	mayda	yirik	umumiy	mayda	yirik	umumiy	mayda	yirik	umumiy
1	G‘aramda	5,66	6,4	12,06	-	-	-	6,6	8,9	15,5	-	-	-
2	Perevalka separatordan keyin	5,41	6,31	11,72	4,42	1,42	2.82	6,26	8,76	15,02	5,15	1,6	3,1
3	Tashqaridagi 6 ta qoziqchali barabandan keyin	4,54	6,19	10,73	12,79	3,28	11,03	5,17	8,52	13,69	21,67	4,27	11,68
4	2SB-10 quritish barabanidan keyin	4,35	6,01	10,36	23,14	6,03	14,1	4,85	8,24	13,09	26,51	7,42	15,55
5	UXK 1-oqimidan keyin (4AB+32QB)	1,06	1,36	2,42	81,28	78,75	79,93	1,18	2,1	3,28	82,12	76,4	78,83
6	UXK 2-oqimidan keyin (4AB+32QB)	0,72	0,98	1,7	87,28	84,69	85,9	0,87	1,75	2,62	86,82	80,35	83,1
7	Jin tarnovida	0,88	1,19	2,07	84,45	81,4	82,83	1	1,94	2,94	84,85	78,2	81,03

Texnologik jarayonlarda paxta iflosligi “GTG Agro klaster” tarkibidagi Bo‘ka va “TCT Agro klaster” tarkibidagi Mustaqillik paxta tozalash korxonalarida mos ravishda 12,06% dan 2,07% ga va 15,5% dan 2,94% ga pasaygan. Tozalash samaradorligi 82,83% va 81,03% ni tashkil etgan.

1-rasmda ishlab chiqarilgan toladagi nuqson va iflos aralashmalar miqdori keltirilgan bo‘lib, toladagi ifloslik ulushi nuqsonlarga nisbatan ikki variantda ham yuqori, Bo‘kada toladagi nuqsonlar 1,37% ni ifloslik 2,32% ni tashkil etgan. Mustaqillikda esa mos ravishda 1,65% va 3,35 % bo‘lgan.

Bo‘kada toladagi umumiy nuqson va iflos aralashmalar miqdori 3,32% bo‘lib, I nav “Oddiy” sinfga to‘g‘ri kelsa, Mustaqillikda 4,91% bo‘lib II nav “O‘rta” sinfga to‘g‘ri kelgan.



1.Buka paxta tozalash korxonasi; 2. Mustaqillik paxta tozalash korxonasi.

1-rasm. Toladagi nuqson va iflos aralashmalar fraksiyasi



2-rasm. UXK tozalash seksiyalarida paxta harakati

Ushbu holat “Oliy” va “Yaxshi” sinfli tolalar olish uchun tozalagichlarni tozalash samaradorligini oshirish kerakligini ko‘rsatdi.

Tajribalar jarayonida UXK tozalash oqimining 1 va 2-batareyalariga paxta taqsimlanishi notekis ekanligi aniqlandi.

Bo‘kada tozalagichlarning 1-batareyasi 4,5 tn/soat bilan, 2-batareyasi 3,2 tn/soat bilan ishlab, tozalash samaradorligi mos ravishda 79,93% va 84,6% ni tashkil etdi. Mustaqillikda esa 1 va 2-batareyalarda ish unumdorligi 4,7 tn/soat va 3,3 tn/soatni, tozalash samaradorligi esa 78,84% va 83,1% ni tashkil etdi. Ushbu holat ishlab chiqarilayotgan tola iflosligining notekisligiga va uning sinfining pasayishiga olib keladi.

Muammoni hal qilish uchun tozalagich ta’minlagichining inventor ko‘rsatkichi, ta’minlovchi valiklar aylanish soni va tozalagichning paxta bo‘yicha ish unumdorligi o‘rtasidagi bog‘lanishlarni ifodalovchi regressiya tenglamalari olindi. Ushbu regressiya tenglamalari asosida texnologik jarayondagi ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi bog‘lanishlar aniqlandi.


Ulardan foydalangan holda ta’minlash valiklarining aylanish soniga qarab tozalagich ish unumdorligini belgilash va paxtani bir tekis taqsimlash imkoniyati yaratildi. Bu esa tozalagichning ish unumdorligi va paxtaning taqsimlanishini belgilashda foydalanish imkonini beradi.

Tajribalarda qoziqchali-parrakli baraban va arrali baraban seksiyalaridan uzatilayotgan paxta harakatida buzilishlar paydo bo‘lishi, ya’ni paxta belgilangan trayektoriya bo‘yicha harakatlanmasdan qoziqchali va arrali barabanlar chegarasida ularning tepa qismidan orqaga qaytishi kuzatildi.


2-rasmda paxtaning tozalash oqimidagi harakati keltirilgan bo‘lib, unda qoziqchali-parrakli barabandan otilgan paxta bo‘laklarining bir qismi yo‘naltiruvchi cho‘tkali barabanga urilib, uning ta’sirida arrali baraban yuzasiga yo‘naltirilgan, qolgan bir qismi esa cho‘tkali va qoziqchali baraban oralig‘idan orqaga qaytishi ko‘rinib turibdi. Natijada paxtaning UXK oqimida barqaror harakatlanishi buzilib, ishchi kamerada paxta miqdori oshib ketadi, tozalash samaradorligi pasayadi, tola va chigit shikastlanishi oshadi hamda paxtaning tiqilishiga olib keladi.

3-rasmda Bo‘ka paxta tozalash korxonasida UXK tozalash oqimidagi paxtaning orqaga qaytishi holati keltirilgan. Mustaqillik paxta tozalash korxonasida ham UXK tozalash oqimida paxtaning orqaga qaytishi kuzatildi. Mazkur tajriba natijalari tozalash oqimida paxtaning harakati, ish unumdorligi va tozalash samaradorligini baholashda muhim ko‘rsatkich sifatida xizmat qiladi hamda texnologik jarayonni takomillashtirish yo‘nalishlarini belgilash imkonini beradi.


Qayd etilgan kamchiliklarni bartaraf etish uchun uzatish zonalarida cho‘tkali barabanlar o‘rniga sferik yo‘naltirgichlar tavsiya etilib, ularning joylashuv koordinatalari va egrilik radiuslari aniqlandi (4-5 rasmlar).



3-rasm. Bo‘ka paxta tozalash korxonasida UXK tozalash oqimi seksiyalaridan paxtani orqaga qaytishi holati



4-rasm. Arrachali barabandan paxta uzatishda yo‘naltirgichni joylashuv sxemasi



5-rasm. Qoziqchali-parrakli barabandan arrachali barabanga paxta uzatish sxemasi


Keyingi vazifa qoziqchali-parrakli baraban, paxta va to‘rli yuzani o‘zaro ta’sirlashuviga hamda tozalash samaradorligi paxta bo‘lagi massasi va qoziqcha zarbasini ta’sirini aniqlashdan iborat bo‘ldi.

Buning uchun 6-rasmda keltirilgan qoziqchali plankali barabanni paxta bo‘lagiga ta’siri sxemasidan quyidagi differensial tenglamani tuzamiz.

$$m \cdot \ddot{x} = k \cdot v + mg \sin\varphi + (P + T) \cdot \cos\omega t \quad (1)$$

bu yerda

T= $\frac{\delta}{R} \cdot N$ – dumalashdagi ishqalanish kuchi,
δ – dumalanishdagi deformatsiya,
N – normal bosim kuchi,
R – qoziqchali-parrakli baraban radiusi.
F – markazdan qochma kuch,
mg – og‘irlik kuchi,
$k \cdot v^2$ – havoning qarshilik kuchi,
T – ishqalanish kuchi.



6-rasm. Qoziqchali-parrakli baraban qoziqlarini paxta tolasiga ta’siri jarayoni sxemasi

Tenglama yechimida quyidagi qoziqchalar ta’sirida paxta bo‘lakchasi harakati tenglamasi olindi.

$$x = z_1 - z_2 \cdot e^{zt} - \frac{g \cdot \omega + \frac{k}{m^2}(P + \frac{\delta \cdot N}{R})}{\omega \cdot (\omega^2 + \frac{k^2}{m^2})} \sin\omega t - \frac{(\frac{P}{m} + \frac{\delta \cdot N}{m \cdot R}) \cdot \omega - \frac{g \cdot k}{m}}{\omega \cdot (\omega^2 + \frac{k^2}{m^2})} \cos\omega t \quad (2)$$

z_1 va z_2 – umumlashtirilgan ko‘rsatkichlar.

Undan ko‘rinib turibdiki paxta bo‘lagi harakat trayektoriyasiga bir qator omillar, jumladan qoziqchali-parrakli baraban burchak tezligi, normal bosim kuchi, paxta massasi ta’sir etar ekan. Qoziqchali baraban burchak tezligi va qoziqchalarni zarbasi paxtani harakati tezligi va tezlik yo‘nalishiga ta’sir etadi.

Ayniqsa qoziqcha zarbasini chigit yuzasiga yoki paxta bo‘lagining yuqori tola qatlamiga ta’sir etishiga qarab, paxta to‘g‘ri chiziqli yoki aylanma harakat qilishi mumkin.

Qayd etilganlardan kelib chiqqan holda paxtadan ifloslik ajralishiga ta’sir etuvchi omillar tahlil qilindi.

Tozalagichning 4 ta qoziqchali-parrakli barabandan iborat seksiyasiga massasi m, zichligi ρ va hajmi $V = \frac{m}{\rho}$ bo‘lgan paxta o‘tgan bo‘lsin. Ma’lum dt vaqt o‘tgandan so‘ng paxtadan ifloslik ajralishi hisobiga uni massasi m-dm ga teng bo‘ladi. Qoziqcha zarbasi hisobiga paxta zichligi dρ qiymatga kamayadi, hajmi esa oshadi. Unda

$$vtdv = \frac{m-dm}{\rho-d\rho} \tag{3}$$

yoki

$$\frac{dv}{v} = \frac{1-(dm/m)}{1-(d\rho/\rho)} \tag{4}$$

Bunda paxta massasi nisbiy kamayishi uning hajmini nisbiy o‘zgarishiga proporsional deb olsak, unda

$$\frac{dm}{m} = \frac{dv}{a \cdot v} \tag{5}$$

bunda a-proporsionallik koeffitsiyenti.
(4) va (5) tenglamalardan foydalanib

$$\frac{dm}{m} = \frac{d\rho}{\rho(1+a)} \tag{6}$$

Qoziqchali barabanlar zarbasi natijasida paxta titilib mayda bo‘laklarga ajraladi. Agar titilish samarasini ya’ni paxta zichligini dt vaqtda nisbiy kamayishini qoziqchalar ta’siriga proporsional deb olsak

$$\frac{d\rho}{\rho} = -b \cdot k \cdot n \cdot dt \tag{7}$$

bunda b-proporsionallik koeffitsiyenti, k-qoziqchalar qatori soni, n-barabanning aylanish soni.

(6) tenglamani (7) ga qo‘yib

$$(1+a)\frac{dm}{m} = -b \cdot k \cdot n \cdot dt \quad \text{ni olamiz} \qquad (8)$$

undan

$$(1+a)\ln(\frac{m}{m_0}) = -b \cdot k \cdot n \cdot t \qquad (9)$$

bunda m_0 t=0 dagi paxta massasi.

Bundan tozalash jarayonida ifloslik ajralishi hisobiga paxta massasini o‘zgarishi tenglamasini olamiz.

$$m = m_0 \cdot \exp(-\frac{b \cdot k \cdot n \cdot t}{1+a}) \qquad (10)$$

Ushbu (10) tenglamadan foydalanish uchun a va b koeffitsiyentlarni tajribada aniqlash kerak bo‘ladi.

Buning uchun C-65241/3 nav, umumiy iflosligi 13,6 %, mayda iflosligi 5,92 %, yirik tflosligi 7,68 % bo‘lgan paxtani tuzulmaviy tarkibi ko‘rsatkichi m=5,2-50-100 % bo‘lgan, ya’ni daladan kelgan paxta uni 50 % va 100 % tolali yakka chigitlarga ajratilgan holda qoziqchali-parrakli baraban seksiyasida tozalandi. Tajriba natijalari 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval

Paxta tuzilmaviy tarkibi ko‘rsatkichini tozalash ko‘rsatkichlariga ta’siri

Ajralgan ifloslik						Tozalash samaradorligi, %				
mayda		yirik		umumiy		Paxtani umumiy iflosligi ga nisbatan			Paxtani mayda va yirik iflosligiga nisbatan	
gr	%	gr	%	gr	%	mayda	yirik	umumiy	mayda	yirik
m=5,2 %, ρ=53 kg/m^3, v=3·10^{-5} m^3										
42,12	1,4	3,21	0,11	45,33	1,51	10,3	0,74	11,04	23,65	1,3
m=50 %, ρ=32,8 kg/m^3, v=1,219·10^{-5} m^3										
49,53	1,69	1,36	0,04	50,88	1,69	12,13	0,29	12,42	27,87	0,52
m=100 %, ρ=23,83 kg/m^3, v=0,965·10^{-5} m^3										
41,92	1,4	1,43	0,05	43,35	1,45	10,3	0,37	10,67	23,69	0,65


Tajriba natijalaridan hamda (9) va (10) formulalardan foydalangan holda koeffitsiyent a va b qiymatlari aniqlandi.

a=25,86, b=0,0099

7-rasmda 10 formula hamda 2-jadvaldan foydalanib olingan grafiklar keltrilgan.

Ularning tahlili quyidagilarni ko‘rsatdi.

- Paxtadan ifloslik ajralish foizi va tozalash samaradorligiga paxtani tozalash jarayonlaridagi tezligi ahamiyatli darajala ta’sir etishi aniqlandi.
- Paxtadan ifloslik ajralish miqdori paxtani tozalash seksiyalaridagi, tezligi oshgan sayin kamayib borishi kuzatildi. Bunga paxtani seksiyada bo‘lish vaqti oshishi va qoziqchalar zarbasi ko‘payishi ham sabab bo‘lishi mumkin. (7-rasmga qarang)
- Paxta tezligi 9 m/s dan 4 m/s ga pasayishi ifloslik ajralishini 0,94 % dan 2,08 % ga oshishi, tozalash samaradorligini 6,91 % dan 15,26 % gacha ko‘tarilishiga olib kelgan (7-rasmga qarang).




7-rasm. Tozalash seksiyasida paxta tezligining ifloslik ajralishi va tozalash samaradorligiga ta’siri


Paxtaning tuzilmaviy tarkibini tozalash samaradorligiga ta’siri ahamiyatli darajada bo‘lib, tozalash jarayonida uni ratsional qiymatini aniqlash muammosi mavjudligini ko‘rsatdi.

Dissertasiyaning “**UXK uskunasida paxtani tozalash samaradorligini oshirish bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar**” deb nomlangan uchinchi bobida paxtani tuzilmaviy tarkibi tozalash ko‘rsatkichlariga ta’sirini hamda qoziqchali-parrakli va arrachali barabanlar bilan to‘rli yuza va kolosnik panjara oraliq masofalarining ratsional qiymatlarini aniqlash bo‘yicha o‘tkazilgan tajriba natijalari keltirilgan. Paxtaning tuzilmaviy tarkibini tozalash samaradorligiga ta’sirini aniqlash uchun paxtani boshlang‘ich tuzilmaviy tarkibi m=5,2 % va m=50 % va m=100 % bo‘lgan, ya’ni paxta namunasi 50 % va 100 % yakka chigitdan iborat bo‘lgan variantlarda to‘rtta qoziqchali va to‘rtta arrachali baraban seksiyalarida tozalandi.


8-rasmda paxtaning tuzilmaviy tarkibini paxtani umumiy mayda va yirik iflosliklarga nisbatan tozalash samaradorligi xamda tozalangan paxtadagi qoldiq ifloslikga ta’siri keltirilgan. Ularni tahlili paxtani tuzilmaviy tarkibi ko‘rsatkichi m=50 % gacha, ya’ni paxtadagi tolali yakka chigitlar 50 % bo‘lguncha tozalash samaradorligi oshib borishi, so‘ngra pasayishi aniqlandi hamda tolali yakka chigitlarga ajralishi natijasida paxta bo‘lagi o‘lchamlari kichiklashishi qoziqchali va arrachali barabanlar bilan to‘rli yuza va kolosnikli panjaralar orasidagi texnologik tirqishlarni belgilashda inobatga olish kerakligini ko‘rsatdi.




a) C65-24 1/3
Paxta tuzilma tarkibi, m



a) C65-24 1/3
Paxta tuzilma tarkibi, m




a) C65-24 1/3
Paxta tuzilma tarkibi, m



b) Porloq 1/2
Paxta tuzilma tarkibi, m

Tozalash samaradorligi: 1-mayda, 2-yirik, 3-umumiy.


Paxtani umumiy iflosligiga nisbatan tozalash samaradorligi



b) Porloq 1/2
Paxta tuzilma tarkibi, m

Tozalash samaradorligi: 1-mayda, 2-yirik

Mayda va yirik iflosliklarga nisbatan tozalash samaradorligi



b) Porloq 1/2
Paxta tuzilma tarkibi, m

Qoldiq iflosligi: 1-mayda, 2-yirik, 3-umumiy.

Tozalangan paxtadagi qoldiq ifloslik

8-rasm. Paxta tuzilma tarkibini tozalash ko'rsatkichlariga ta'siri

8-rasmda keltirilgan bog‘lanishlarni regressiya tenglamalari olindi.

Ushbu xulosalardan kelib chiqqan holda paxta bo‘lagini tozalash jarayonlarida geometrik o‘lchamlarini o‘zgarishiga monand tozalash seksiyalarida qoziqchali-parrakli baraban va to‘rli yuza, hamda arrachali baraban bilan kolosnikli panjara orasidagi masofani ratsional qiymatlarini aniqlash maqsadida tajriba sinovlari o‘tkazildi. Tajribalar 3-jadvalda keltirilgan variantlarda o‘tkazildi.


3-jadval

Qoziqchali-parrakli va arrachali barabanlar bilan to‘rli yuza va kolosnikli panjara oralig‘i masofasi


t/r	Tozalash seksiyalari	Tozalash variantlari		
		Qoziqcha va arrachali barabanlar bilan to‘rli yuza va kolosnik panjaralar o‘rtasidagi oraliq masofalar, mm		
		1-variant	2-variant	3-variant
1	1QB	15	15	18
2	2QB	15	15	18
3	3QB+1AB	15	15	18
4	4QB+2AB	15	12	15
5	5QB+3AB	15	12	15
6	6QB+4AB	15	12	12
7	7QB	15	12	12
8	8QB	15	12	12

Izoh. QB-qoziqchali-parrakli baraban seksiyasi; AB-arrachali baraban seksiyasi.


Tajriba natijalari 9-10-rasmlarda keltirilgan.




9-rasm. Paxtani tozalash variantlarini samaradorligi



1-variant



2-variant



3-variant

10-rasm. Qoziqchali va arrachali baraban seksiyalarini tozalash samaradorligi

Umumiy tozalash samaradorligi 1-variantda 85,36% ni, qolgan variantlarda mos ravishda 89,31 va 92,4 % ni tashkil etgan. Mayda ifloslik bo‘yicha tozalash samaradorligi variantlar bo‘yicha mos ravishda 32,94%, 34,08% va 36,32 % ni tashkil etgan bo‘lsa, yirik ifloslik bo‘yicha mos ravishda 52,42 %, 55,26 % va 56,32 % bo‘lgan. (9-rasmga qarang).

Olingan natijalar 3-variantni samaradorligi yuqori ekanligini ko‘rsatdi.

Dissertasiyaning “**Takomillashtirilgan paxta tozalagichning ishlab chiqarishdagi tajriba sinovi va iqtisodiy samaradorlik hisobi**” deb nomlangan to‘rtinchi bobida takomillashtirilgan paxta tozalagichni mavjud tozalagich bilan qiyosiy tajriba sinovi natijalari va iqtisodiy samaradorlik hisobi keltirilgan.

4-jadvalda tozalash jarayonining chigit va tola shikastlanganligiga ta’siri keltirilgan bo‘lib, C-6524 navida chigit shikastlanganligi UXK oqimidan oldin 2,15 % bo‘lsa, tozalangandan keyin 4,5 % bo‘lib, 2,35 % ga oshgan.

Buxoro-10 navida tozalangandan keyin 2,54 % dan 9 % ga, ya’ni 6,36 % ga oshgan.

Chigit shikastlanganligi ikki variantda ham paxta tavsiya variantida tozalanganda mos ravishda 1,15 % va 1,83 % ga oshgan.

C-6524 I/2 nav paxtani tozalashda tolani shikastlanganligi 5 % dan 13% gacha oshgan, Buxoro-10 III/3 navida esa 5 % dan 22 % ga ya’ni 17 % ga oshgan. Tavsiya variantida C-6524 va Buxoro-10 navlarida paxtani mexanik shikastlanganligi mos ravishda 3-5 % ga oshgan.

4-jadval

Paxta chigitini va tolasini shikastlanganligi

Seleksiyasi, nav va sinfi	Texnologik jarayon	**Chigit shikastlanganligi, %**	**Tola shikastlanganligi, %**				
			Tolaning pishganlik darajasi				
			0-1,0	1,4-2,5	3,0-4,0	4,0-5,0	Jami
C-6524 1/2	UXK dan oldin	2,15 %	2	1	1	1	5
	UXK dan keyin	4,5 %	5	3	3	2	13
	Tavsiya variantida 4AB+32QB	3,3 %	3	2	2	1	8
Buxoro 10 3/3	UXK dan oldin	2,84 %	2	1	1	1	5
	UXK dan keyin	9,2 %	9	6	4	3	22
	Tavsiya variantida 4AB+32QB	4,67 %	4	3	2	1	10

Ishlab chiqarish sharoitida Mustaqillik paxta tozalash korxonasida o‘tkazilgan tajribada takomillashtirilgan yo‘naltirgichlar o‘rnatilgan, boshlang‘ich 3 ta qoziqchali baraban va bitta arrachali barabanlarda qoziqchali va arrachali barabanlar bilan to‘rli yuza va kolosnik panjaralar oralig‘i 18 mm, 2-3-arrachali va 4-5-qoziqchali barabanlar seksiyasida 15 mm qolgan seksiyalarda 12 mm o‘rnatilgan. Tozalagich bilan mavjud UXK tozalash oqimini ko‘rsatkichlari 5 va 6-jadvallarda keltirilgan.

5-jadval

Tozalash ko‘rsatkichlari

Tozalash seksiyalaridan ajralgan ifloslik, %											Ja’mi ajralgan ifloslik, %			Tozalash samaradorligi %
4QB	6QB	1AB	4QB	1AB	4QB	1AB	4QB	1AB	6QB	4QB	32QB	4AB	Ja’mi	
Tavsiya varianti oraliq $\Delta = 18 - 15 - 12\ mm$														
18	18	18	15	15	15	15	15	15	12	12				
0,77	0,96	2,8	0,46	1,87	0,36	1,13	0,3	0,65	0,3	0,2	3,35	6,45	9,8	K=83,4
Mavjud variant $\Delta = 15\ mm$														
0,79	0,97	2,7	0,38	1,86	0,27	1,1	0,17	0,64	0,13	0,08	2,79	6,3	9,09	K=77,43

6-jadval

Ishlab chiqarilgan tola ko‘rsatkichlari

Paxtani ishlash variantlari	Tola							Chigit	
	Namligi	Nuqson va iflosliklar %					Sinfi	Namligi	Shikastlanganligi %
		Ja’mi	Ulyuk va pishmagan tola plastigi	Tolali chigit po’stlog’i	Qolgan nuqsonlar	Iflos lik			
Tavsiya	6,5	4,4	0,38	0,68	0,68	3,1	O’rta	9,4	2,01
mavjud	6,6	5,75	0,45	0,79	0,79	4,24	Iflos	9,35	2,85

Natijalardan ko‘rinib turibdiki, mavjud variantda qoziqchali-parrakli barabanlarda ajralgan ifloslik 2,79 % ni, arrachali barabanlarda esa 6,3 % ni, jami 9,09 % ni tashkil etib tozalash samaradorligi 77,43 % dan iborat bo‘lgan.

Tavsiya variantida qoziqchali seksiyada 3,95 %, arrachali seksiyada 6,45 %, jami 9,8 % ifloslik ajralib, tozalash samaradorligi 83,48 % ni tashkil etgan (5-jadval).

Ishlab chiqarilgan tolalardagi nuqson va iflosliklar miqdori mavjud variantda 5,75 % bo‘lib, 2-nav iflos sinfga to‘g‘ri kelsa, tavsiya variantida 4,4 % ni tashkil etib o‘rta sinfga to‘g‘ri kelgan.

Olingan natijalar tavsiya etilgan takomillashtirilgan UXK tozalash oqimini samaradorligi yuqori ekanligini ko‘rsatdi.

Takomillashtirilgan paxta tozalagichni ishlab chiqarishga tatbiq etishda har 1 tn ishlab chiqarilgan tola uchun iqtisodiy samaradorlik 1430700 so‘mni tashkil etadi.

UMUMIY XULOSA VA TAVSIYALAR

1. Paxta tozalash jarayonlarida paxtaning tuzilmaviy tarkibi, geometrik o‘lchamlari va ifloslik tarkibi texnologik jarayon samaradorligiga bevosita ta’sir qilishi aniqlandi. Paxta bo‘laklarining texnologik jarayonlar davomida maydalanib, tolali yakka chigitlar ulushining ortib borishi tozalash jarayonini tashkil etishda e’tiborga olinishi kerak bo‘lgan asosiy omillardan biri ekanligi asoslandi.

2. Paxtani tozalash oqimlari bo‘yicha notekis taqsimlanishi tozalash samaradorligi va tola sifatiga salbiy ta’sir qilishi aniqlanib, inventor ko‘rsatkichi, ta’minlovchi valiklar aylanish soni va UXK ish unumdorligi o‘rtasidagi

bog‘lanishlar asosida regressiya tenglamalari olindi. Ularni tatbig‘i paxtani tozalash oqimlari bo‘yicha paxtani bir tekis taqsimlash imkonini berdi.

3. UXK tozalash oqimida paxta harakatining buzilishi, paxtaning orqaga qaytishi va ishchi kameralarda to‘planib qolishi aniqlanib, natijada tozalash samaradorligini pasaytirishi hamda tola va chigit shikastlanishini oshishiga olib kelishi asoslandi. Paxtani qoziqchali-parrakli barabandan arrachali barabanga va arrachali barabandan qoziqchali-parrakli baraban seksiyalariga uzatish uchun cho‘tkali barabanlar o‘rniga maxsus yo‘naltirgichlar o‘rnatilishi hisobiga paxtani orqaga qaytish holatlari bartaraf etilib, paxtaning barqaror harakati ta’minlandi.

4. Qoziqchali-parrakli baraban, paxta bo‘lakchasi va to‘rli yuza o‘zaro ta’sirlashuvi nazariy tahlil qilinib, paxta bo‘lakchasi harakati, qoziqcha ta’siridan keyingi tezligi, ta’sir vaqti va normal bosim kuchini ifodalovchi differensial tenglamalar olindi. Natijalar qoziqcha zarbasining samaradorligi paxta bo‘lakchasi massasi, qamrash burchagi va baraban tezligiga bog‘liq ekanligini ko‘rsatdi.

5. Paxta tuzilmaviy tarkibining tozalash samaradorligiga ta’siri o‘rganilib, paxtadagi tolali yakka chigitlar ulushini xarakterlovchi ko‘rsatkich taklif etildi. Tajribalar tozalash samaradorligi tolali yakka chigitlar miqdori 50 % bo‘lguncha oshib borishi, so‘ngra pasayishini ko‘rsatdi.

6. Qoziqchali va arrachali barabanlar bilan to‘rli yuza hamda kolosnik panjara oralig‘i masofalarini differensial qiymatlarda tanlash bo‘yicha tajribalar o‘tkazilib, texnologik oraliqlarni paxta bo‘lagi o‘lchamlarining o‘zgarishiga mos ravishda 18–15–12 mm tartibda bosqichma-bosqich kamaytirish tozalash samaradorligini oshirishi mumkinligi aniqlandi.

7. Ishlab chiqarish sharoitida o‘tkazilgan tajribalarda namligi 7,8 %, iflosligi 11,64 % bo‘lgan C-6524 2/3 paxta navi ishlanganda mavjud variantda tozalash samaradorligi 77,43 % ni tashkil etib, ishlab chiqarilgan toladagi nuqson va iflos aralashmalar 5,75 % bo‘lib, “iflos” sinfga to‘g‘ri kelishi aniqlandi. Tavsiya variantida esa tozalash samaradorligi 83,48 % ni tashkil etib, toladagi nuqson va iflos aralashmalar 4,4 % bo‘lib, “o‘rta” sinfga to‘g‘ri keldi.

8. Takomillashtirilgan UXK tozalash oqimini amaliyotga joriy etish har 1 tonna ishlab chiqarilgan tolaga nisbatan 1 430 700 so‘m qo‘shimcha iqtisodiy samara berishi aniqlandi.

ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ТАШКЕНТСКОМ ИНСТИТУТЕ ТЕКСТИЛЬНОЙ И ЛЕГКОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ

ТАШКЕНТСКИЙ ИНСТИТУТ ТЕКСТИЛЬНОЙ И ЛЕГКОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ

МАРДОНОВ ИХТИЁРЖОН БАХОДИР УГЛИ

ПОВЫШЕНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ ОЧИСТКИ НА ОСНОВЕ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ТЕХНОЛОГИЧЕСКИХ И КОНСТРУКТИВНЫХ ПАРАМЕТРОВ ХЛОПКООЧИСТИТЕЛЕЙ.

05.06.02 – Технология текстильных материалов и первичной обработки сырья

АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО ТЕХНИЧЕСКИМ НАУКАМ

Ташкент – 2026

Тема диссертации доктора философии (Doctor of Philosophy) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Академии наук Республики Узбекистан за B2026.3.PhD/T6211.

Диссертация выполнена в Ташкентском институте текстильной и легкой промышленности.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский и английский (резюме)) размещен на веб-сайте Ученого совета при Ташкентском институте текстильной и легкой промышленности (www.ttysi.uz) и на информационно-образовательном портале «Ziyonet» (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель:	**Парпиев Азимжон Парпиевич** доктор технических наук, профессор
Официальные оппоненты:	**Жуманиязов Кадам Жуманиязович** доктор технических наук, профессор
	Усманкулов Алишер Кадыркулович доктор технических наук, профессор
Ведущая организация:	**Наманганский государственный технический университет**

Защита диссертации состоится « 10 » ноября 2026 года в 11^{00} часов на заседании научного совета DSc.03/2025.27.12.T.21.01 при Ташкентском институте текстильной и легкой промышленности. (адрес: 100100, г. Ташкент, ул.Шохджахон-5, Административное здание Ташкентского института текстильной и легкой промышленности, 2-этаж, 222-аудитория, тел.: (+99871) 253-06-06, факс: 71-253-36-17; E-mail: titlp_info@edu.uz)

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского института текстильной и легкой промышленности (зарегистрирована за №322). Адрес: 100100, Ташкент, Шохджахон-5, тел.: (+99871) 253-06-06, 253-08-08.

Автореферат диссертации разослан « 23 » октября 2026 года.
(реестр протокола рассылки № 316 от 23 октября 2026 года).

Х.Х.Камилова
Председатель Научного Совета по присуждению ученых степеней, д.т.н., профессор

А.З.Маматов
Ученый секретар Научного Совета по присуждению ученых степеней, д.т.н., профессор

Ш.Ш.Хакимов
Председатель Научного семинара при Научном Совете по присуждению ученых степеней, д.т.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ(аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. Одним из важных звеньев мировой экономики является текстильная промышленность, дальнейшее развитие которой имеет большое значение. В связи с этим в ряде ведущих стран, в том числе в Китае, США, Индии и Турции, являющихся лидерами в области производства и переработки хлопка, проводятся широкомасштабные работы по разработке и совершенствованию новых рабочих органов для технологического процесса первичной переработки хлопка. В данном направлении особое внимание уделяется использованию новых энерго - и ресурсосберегающих технологических машин и оборудования, позволяющих улучшить качество хлопкового волокна и снизить его себестоимость, а также глубокому совершенствованию применяемого оборудования.

В мире проводятся научно-исследовательские работы, направленные на совершенствование технологий очистки хлопкового сырья от засорителей и разработку энерго- и ресурсосберегающего оборудования, реализующего данные технологии, развитие их научных основ, разработку автоматических систем управления режимами работы хлопкоочистительных технологических машин и контроля качества продукции, а также определение оптимальных значений факторов, влияющих на технологический процесс. В данном направлении важное значение имеет совершенствование высокоэффективного оборудования хлопкоочистительной промышленности и использование ресурсосберегающих технологий. В связи с этим особое внимание уделяется созданию эффективной технологии очистки хлопка от сорных примесей, разработке ресурсосберегающих конструкций рабочих органов и оптимизации режимов работы процесса очистки хлопка.

В Республике реализуются комплексные меры, направленные на организацию производства широкого ассортимента качественной хлопковой продукции, углубление локализации её производства, а также повышение экспортного потенциала отечественных производителей. В Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022–2026 годы определена задача продолжения промышленной политики, направленной на обеспечение устойчивости национальной экономики и увеличение доли промышленности в валовом внутреннем продукте, с целью увеличения объёма производства промышленной продукции в 1,4 раза. При этом поставлена задача увеличить объём производства продукции текстильной промышленности в 2 раза. Реализация данной задачи, в том числе, предусматривает совершенствование технологических машин хлопковой промышленности на уровне современных требований, разработку новых типов рабочих органов и приводов технологических машин, создание ресурсосберегающих технологий очистки хлопкового сырья от мелких и крупных засорителей с высокой эффективностью, что является одной из важных задач.

Настоящая диссертационная работа в определённой степени служит реализации задач, предусмотренных Указами Президента Республики

Узбекистан от 28 января 2022 года № УП-60 «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022–2026 годы», от 16 ноября 2021 года № УП-14 «О мерах по регулированию деятельности хлопково-текстильных кластеров», от 10 января 2023 года № УП-2 «О мерах по поддержке деятельности хлопково-текстильных кластеров, коренному реформированию текстильной и швейно-трикотажной промышленности, а также дальнейшему повышению экспортного потенциала отрасли», постановлением Кабинета Министров Республики Узбекистан от 22 июня 2020 года № 397 «О мерах по дальнейшему развитию хлопково-текстильного производства», а также другими нормативно-правовыми актами, относящимися к данной сфере деятельности.

Степень изученности проблемы. Вопросами совершенствования технологии и оборудования для очистки хлопка занимался ряд зарубежных исследователей, в том числе W.S. Anthony, R.M. Sutton, R.V. Baker, P.A. Boving, J.W. Laird, V.G. Arude, S.K. Shukla, T.S. Manojkumar, D.W. Van Doorn, B.M. Norman и другие.

Исследования, направленные на совершенствование техники и технологии очистки хлопка от сорных примесей, обоснование параметров и режимов работы основных рабочих органов, а также процессов равномерной подачи хлопка в очистительное оборудование, выполнены Г.И. Мирошниченко, С.Д. Болтабаевым, Г.Д. Джаббаровым, Р.З. Бурнашевым, Г.И. Болдинским, Р.В. Корабельниковым, А.П. Парпиев, Б.И. Рогановым, И.К. Хафизовым, А. Расуловым, А.Е. Лугачевым, А. Джураевым, Ю.С. Сосновским,
Г.А. Курбановой, А.А. Сафаевым, Ф.М. Бахтияровой, П.Н. Бородиным, Д.Ю. Мирахмедовым, Ш.Ш. Хакимовым и другими учёными. На основе разработанных ими научных положений и практических рекомендаций созданы и внедрены в производство существующие технологии и оборудование для очистки хлопка.

Анализ результатов эксплуатации поточных линий очистки хлопка типа УХК, применяемых на хлопкоочистительных предприятиях республики, показал, что процессы взаимодействия основных рабочих органов с хлопком, а также закономерности его устойчивого перемещения в рабочих зонах оборудования изучены недостаточно. Кроме того, в конструкциях и технологических режимах работы данных очистительных машин сохраняется ряд недостатков, отрицательно влияющих на эффективность очистки и качественные показатели перерабатываемого хлопка.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Настоящее исследование выполнено в рамках приоритетного направления II. «Энергетика, энерго- и ресурсосбережение» развития науки и технологий Республики Узбекистан.

Связь темы диссертации с планами научно-исследовательских работ высшего образовательного учреждения, в котором выполнена диссертационная работа. Диссертационное исследование выполнено в

рамках проекта ИТД-3-136 «Разработка ресурсосберегающей управляемой технологии и устройства для очистки волокнистых материалов», предусмотренного планом научно-исследовательских работ Ташкентского института текстильной и лёгкой промышленности.

Целью исследования является повышение эффективности очистки хлопка и качества получаемого волокна на основа совершенствования основных рабочих органов хлопкоочистительного оборудования.

Задачи исследования:

анализ качества волокна, вырабатываемого на хлопкоочистительных предприятиях;

анализ существующего состояния процесса движения хлопка в поточной линии очистки типа УХК;

определение рациональных координат направителя хлопка;

исследование процессов взаимодействия колков, хлопка и сетчатой поверхности;

анализ ударного воздействия колков колково-лопастного барабана на семена хлопка и волокнистый слой;

исследование влияния структурного состава хлопка на технологические показатели процесса очистки;

определение рациональных значений расстояний между колково-лопастными и пильчатыми барабанами, сетчатой поверхностью и колосниковой решёткой;

проведение производственных испытаний усовершенствованной поточной линии очистки хлопка и расчёт экономической эффективности её применения.

Объектом исследования являются хлопкоочистительные оборудование.

Предметом исследования являются процессы взаимодействия хлопка с рабочими органами хлопкоочистительных машин.

Методы исследования. В процессе исследования использованы положения теоретической и прикладной механики, методы математической статистики, сравнительного анализа, оценивания и оптимизации с применением специализированных программных средств. Технологические показатели хлопка и его компонентов определены в соответствии с методиками, установленными действующими государственными стандартами.

Научная новизна исследования заключается в следующем:

установлено, что в зонах подачи хлопка к пильчатым и колково-лопастным барабанам очистителя нарушается непрерывность его движения, возникают случаи обратного перемещения хлопковой массы, приводящие к повышению повреждаемости волокна и семян;

взамен щёточных барабанов в очистителях предложено применение сферических направителей, определены рациональные координаты их размещения, обеспечивающие устранение обратного перемещения хлопка;

получены зависимости между показателем структурного состава хлопка и эффективностью очистки пильчатых и колково-лопастных барабанов, на основании которых определено рациональное значение структурного состава хлопковой массы в процессе очистки;

обосновано, что дифференцированный выбор технологических зазоров в очистителях с учётом изменения структурного состава и геометрических размеров хлопковой массы способствует повышению эффективности очистки.

Практические результаты исследования заключаются в следующем:

в конструкцию поточной линии очистки хлопка типа УХК внесены изменения, обеспечивающие устойчивое перемещение хлопка без его обратного движения;

обосновано, что дифференцированный выбор технологических зазоров между колково-лопастными и пильчатыми барабанами с учётом структурного состава хлопка способствует повышению эффективности его очистки;

получены зависимости между плотностью и структурным составом хлопка, частотой вращения питающих валиков и производительностью очистительной машины, обеспечивающие её работу при заданном уровне производительности.

Достоверность результатов исследования. Достоверность результатов исследования обоснована экспериментальной проверкой результатов теоретических исследований движения хлопка в оборудовании для его очистки от сорных примесей, их логическим соответствием положениям действующих фундаментальных теорий, применением стандартизированных методов и средств при выполнении расчётов, а также внедрением полученных результатов в производство с достижением реального экономического эффекта.

